




**UZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

TEXNOLOGIK VA PROFESSIONAL TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-TEXNIK ANJUMAN**



20-noyabr 2020-yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TEXNOLOGIK VA PROFESSIONAL
TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH,
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**Respublika onlayn ilmiy-texnik anjuman
materiallari to'plami**

2020-yil 20-noyabr

Buxoro – 2020

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 – yil 7 – fevraldagi 56-Φ-sonli farmoyishi asosida 2020 – yil 20 – noyabr kuni Buxoro davlat universitetida o'tkazilgan “Texnologik va professional ta’limni modernizatsiyalash, muammolar va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to’plami, Buxoro - 2020.

“Texnologik va professional ta’limni modernizatsiyalash, muammolar va yechimlar” Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to’plamiga ilmiy tadqiqot ishlari olib borayotgan izlanuvchilar va tadqiqotchilar, professor-o’qituvchilar, magistrlar hamda talabalarning ilmiy ishlari kiritilgan.

Ushbu ilmiy-texnik anjumanning asosiy maqsadi texnologik va professional ta’limni modernizatsiyalash, sohada mavjud muammolar va ularning yechimlari bo’yicha fikr almashish, ta’limning uzviyligini va uzluksizligi ta’minlash, texnologik va professional ta’limda zamonaviy o’quv adabiyotlari va dasturiy ta’lim vositalarini yaratish, bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, texnologik va professional ta’limda muqobil energiya manbalariga oid bilim berish, ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish, oliy ta’lim muassasalarining moddiy texnik bazasini rivojlantirish, ta’lim turlari o’rtasidagi integratsiya jarayonlarini jadallashtirish, umumiy o’rta ta’lim muassasalarida “Texnologiya” fanini o’qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash borasida erishilgan yutuqlarni yoritish va muammolar yechimini topish, shuningdek, ta’lim tizimidagi hamkorlik borasida fikr almashish, mushohada yuritish, ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Anjuman materiallaridan professor-o’qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, tadqiqotchilar hamda talabalar foydalanishlari mumkin.

Tashkiliy qo’mita:

- | | | |
|-----|-------------------|--|
| 1. | O.X. Xamidov | Universitet rektori, rais; |
| 2. | O.S. Qahhorov | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | M.I. Daminov | O’quv ishlari bo’yicha prorektor, a’zo; |
| 4. | O’U. Rashidov | Moliya va iqtisod ishlari bo’yicha prorektor, a’zo; |
| 5. | S.Q. Qahhorov | Fizika kafedrasini professori, a’zo; |
| 6. | H.O. Jo’rayev | Fizika-matematika fakulteti dekani, a’zo; |
| 7. | E.M. Muxtorov | Pedagogika fakulteti dekani, a’zo; |
| 8. | G.T. Zaripov | I va IPKTB bo’limi boshlig’i, a’zo; |
| 9. | A.R. Jo’rayev | Texnologik ta’lim kafedrasini mudiri, a’zo; |
| 10. | Sh.H. Quliyeva | Texnologik ta’lim kafedrasini dostenti, a’zo; |
| 11. | D.A. Sayfullayeva | Texnologik ta’lim kafedrasini dostenti, a’zo; |
| 12. | Y.Y. Jamilov | Texnologik ta’lim kafedrasini o’qituvchisi, kotib; |

Ma’ul muharrir:

- | | |
|---------------------|--|
| A.R. Jo’raev | “Texnologik ta’lim” kafedrasini mudiri, p.f.f.d. (PhD) |
| Y.Y. Jamilov | “Texnologik ta’lim” kafedrasini o’qituvchisi |

Taqrizchilar:

- | | |
|----------------------|--|
| B. R. Adizov | pedagogika fanlari doktori, professor. |
| Sh.Sh. Olimov | pedagogika fanlari doktori, professor. |

Mazkur to’plamga kiritilgan materiallarning ilmiy saviyasi, mazmuni va ularning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldir.

Buxoro davlat universiteti, 2020-y.

4. Олимов Қ.Т. ва бошқалар. “Махсус фанларни ўқитиш методикаси” Т.: Фан. 2004. -354 б.

ДУАЛ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Сайфуллаева Дилафрўз Ахмадовна

БухДУ “Технологик таълим” кафедраси доценти, п.ф.ф.д. (PhD)

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрда “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди. Мазкур Фармон Ўзбекистон тарихида **янги профессионал таълим тизимини** ташкил этишга асос бўлган бўлса, 2020 йил 24 январда давлатимиз раҳбари ўз Мурожаатномасида **“Жорий ўқув йилидан бошлаб, мутлақо янги профессионал таълим тизими йўлга қўйилиб, касб-хунар мактаблари, коллежлар ва техникумлар ташкил этилади”** деб мазкур тизимнинг аҳамияти таъкидлаб ўтилди [1]. Шунингдек, ушбу Фармон меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда хизмат қилади.

Касб-хунар мактаблари, коллежлар ва техникумларда юқори малакали, рақобатбардош мутахассис кадрлар тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилган бўлиб, илмий-техник тараққиёт ва ахборотлар оқими жадал ривожланаётган ҳозирги кунда ўқувчиларни ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш, юқори интеллектуал салоҳиятга эга бўлган кадрларни тайёрлаш вазифаси қўйилган.

Касб-хунар мактаблари, коллежлар ва техникумларда бўлажак ўқувчиларни тайёрлашда касбий-педагогик компетентлигини шакллантириш муҳим аҳамиятга эга. Бўлажак мутахассис кадрларни тайёргарлиги касбий-педагогик компетентлигига чамбарчас боғлиқдир.

Коллежларда Германия тажрибасида яхши самара берган “дуал” таълим принциплари жорий этилмоқда: ўқувчилар ҳафтанинг маълум кунларида коллежда назарий билим олади, бошқа кунлари корхонанинг ўзида бириктирилган уста раҳбарлигида тўғридан-тўғри келажакда ишлайдиган иш ўрнида амалиёт ўтади.

“Дуал” тушунчаси иккилик деган маънони билдиради ва унинг асосий элементидан бири корхона бўлса, иккинчиси касб-хунар мактаби ҳисобланади. Корхона ва касб-хунар мактаби ҳамкорликда касб-хунар таълими жараёнини таъминлайди [2]. Корхона ва касб-хунар мактаби ўрнашган жойи ва ишлаш вақти турли хил бўлсада, бир-бири билан ҳамкорлик қилади. Дуал тизим, ҳатто ўзини оқлаган бўлса ҳам, уни камдан кам мамлакатларда учратиш мумкин. Дуал таълим – таълим дастурининг назарий, ўқув-амалий қисми профессионал таълим муассасасида, малака ҳамда компетенцияларни шакллантириш бўйича ишлаб чиқариш билан боғлиқ амалий қисм корхона (ташкilot)да ташкил этиладиган ўқитиш тури ҳисобланади [3].

Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантириш, йирик ва кичик бизнес субъектларида аҳоли, айниқса ёшлар ва хотин-қизларнинг бандлигини таъминлаш ҳамда камбағалликни қисқартириш учун меҳнат фаолияти билан таълимни уйғунлашган ҳолда ташкил этиш орқали малакали кадрлар тайёрлаш - Дуал таълимнинг асосий мақсади ҳисобланади.

Дуал таълимни ташкил этишнинг вазифалари:

- корхона (ташкилот)даги ишлаб чиқариш шароитлари билан Таълим муассасалари ўқув жараёнларини ўзаро боғлаш;
- ўқувчиларни меҳнат фаолияти иштирокчисига айлантириш орқали таълимнинг ишлаб чиқариш билан боғлиқ амалий қисмини корхона (ташкилот)ларда ҳамда назарий ва ўқув-амалий қисмини Таълим муассасаларида ташкил этиш;
- ҳудудларнинг инвестицион жозибadorлигини ошириш ҳамда иқтисодиётнинг реал эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда ўрта бўғин кадрларини тайёрлашни такомиллаштириш;
- корхона (ташкилот)лар ҳамда Таълим муассасаларининг ўзаро ҳамкорлик форматлари ва моделларини ишлаб чиқиш;
- таълим дастурларини меҳнат фаолияти билан уйғунлашган ҳолда амалга оширган ҳолда компетенцияларни шакллантириш;
- таълим дастурларини иш берувчиларнинг талаблари ва улардаги технологик янгиланишлар асосида такомиллаштириб бориш;
- кадрларни тайёрлаш ва таълим дастурларини амалга оширишни молиялаштириш;
- корхона (ташкилот)лар ва Таълим муассасалари ўртасидаги ўзаро тармоқ ҳамкорлигининг шакл ва услубларини такомиллаштириш;
- битирувчиларни баҳолашда корхона (ташкилот)лар иштирокини янада кенгайтириш; турли ёшдаги аҳоли қатламини тегишли касб (мутахассисликлар) бўйича квалификацияларни ўзлаштиришга бўлган эҳтиёжларини қондириш.

Касб-ҳунар мактаби махсус назарий ва умумий таълимни беради. Улар аниқ бирор бир касбга боғлиқ фанларни, умумий касбий фанларни ёки сиёсий ва умумтаълим фанларни ўқитади.

Таълимнинг тасдиқланган намунавий ўқув режага асосланган ҳолда ҳар бир касб-ҳунар мактаби ўзининг ўқув режасини ишлаб чиқади. Ишлаб чиқариш корхонасида, яъни иш жойидаги таълим амалий касб-ҳунар таълимини беради. «Касб-ҳунар таълими тўғрисидаги Низом»да белгилаб берилгандек, корхона ўз вақтини режалаштиришни, ўқитиш жойини ва ўқитиш методини эркин танлайди. Корхоналараро ва корхона ичидаги ўқув марказда қисман таълим курслари ўтказилади. Одатда корхона ва касб-ҳунар мактабининг вазифалари қуйидагича тақсимланган: корхона амалий кўникмаларни ўргатишга, касб-ҳунар мактаби эса назарий билимларни беришга масъул. Реал ҳаётда корхона назарий машғулотларни ҳам ўтказиши, касб-ҳунар мактабида эса назарий машғулотларга қўшимча равишда амалий машғулотлар ҳам ўтказилади.

Дуал тизими асосан қуйидаги жойларда:

- корхонада;
- давлат ташкилотларида, шунингдек давлат бошқармаларида ва идораларида;
- эркин касблар бўйича муассасаларда (мисол учун: шифохоналарда, адвокатлар идорасида, архитектура бўлимларида);
- таълим муассасаларида ва махсус мактабларда, шунингдек, ишлаб чиқариш таълим усталарини тайёрлаш мактабларида, ихтисослаштирилган касб-хунар мактабларида ўтказилади.

Касб-хунар таълим тизими асосан ўқувчиларнинг корхонадаги касбий фаолияти билан бошланади.

Дуал тизимида ўқувчиларни танлаган мутахассислиги бўйича замонавий талабларга жавоб берувчи, пухта билим, амалий кўникма ва малакага ҳамда юксак маънавий-ахлоқий сифатларга эга бўлган, интеллектуал жиҳатдан етук кадрлар этиб тайёрлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. М.Холмухамедов. Янги профессионал таълим - янги миссия.<https://review.uz/oz/post.T:2020>
2. Ausbildung und Beruf. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2007. Bonn, 222 S.
3. Berufsausbildung sichtbar gemacht. Bundesministerium für Bildung und Forschung. –Bonn: Pro Print Atelier, 2003. - 62 S.

O‘ZBEK MILLIY XALQ HUNARMANDCHILIGINING TURLARI VA KASB TANLASHNING DOLZARB MASALALARI

O.X. Uzoqov

BuxDU “Texnologik Ta’lim” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

N. Nazarova

BuxDU Texnologik ta’lim yo’nalishi talabasi

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yoshlarning kasb tanlash muammolariga juda katta e’tibor berilmoqda. Kasb tanlash murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, yigit-qizlarning shaxsiy rejalari, u yoki bu kasbga bo‘lgan qiziqishlari, layoqatlari va intilishlari, mahalliy shart-sharoitlar, oilaviy an’analar kabi ob’ektiv va sub’ektiv faktorlar ta’siri ostida shakllanadi. Shaxsning erki, hohishiga bog‘liq bo‘lmagan va ayni vaqtda yoshlarning muayyan kasbga bo‘lgan munosabatlariga, shaxsiy reja va qarorlariga ta’sir etuvchi tashqi shart-sharoitlar ob’ektiv faktorlardir. Bularga ishlab chiqaruvchi kuchlarning tez sur’atlar bilan o‘sishi, fan-texnika taraqqiyotining jadal rivojlanishi va shuning natijasida xalq xo‘jaligining mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojining doimo o‘zgarib turishi va boshqalar kiradi [1, 59]

Barkamol shaxs tarbiyasida, albatta, mehnat ta’limining alohida o‘rni bor. Shuningdek, yoshlarni mehnat va kasblarni qadrlashga o‘rgatish, ijtimoiy hayotda

	shakllantirish shartlari	
Г.И.Музаффарова	Таълим самародорлигини оширишда инновацион таълим технологияларининг ўрни	185
3-ШЎЪБА. ТЕХНОЛОГИК ВА ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМДА ФАН, ТАЪЛИМ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ИНТЕГРАЦИЯСИ		
С.Дж.Базарова Ф.Х.Байчаев	Техника олий таълим муассасаларида касбий йўналтирилган масалалар асосида дарсларни ташкил этиш	187
Ф.Г.Рахмонов Ю.С.Даминова	Профессионал таълимда махсус фанларни ўқитишда фанлараро алоқадорликнинг самарадорлиги	189
Д.А.Сайфуллаева	Дуал таълимни ташкил этиш	192
О.Х.Uzoqov N.Nazarova	O'zbek milliy xalq hunarmandchiligining turlari va kasb tanlashning dolzarb masalalari	194
Ж.А.Хамидов	Мактаб о'қувчиларининг ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish	197
Б.Б.Садуллаев	Ўқувчиларда дўстона муносабатлар ва ижтимоий ҳамкорлик кўникмаларини шакллантириш	199
М.Рахматов, Н.Жалилов, А.Хайиткулов Н.Эргашева	Технология таълими сифатини оширишда ҳамкорлик ва янги педагогик технологияларнинг аҳамияти	202
А.Allamuradov	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitishning muammolari va yechimlari	206
U.Turamuratov M.Barotova	Uzluksiz ta'limda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish orqali hayotga tayyorlash	209
А.Т.Умиров	Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashda interfaol metodlarning o'rni	211
М.Мухлибоев Д.Мамасолиева	Физика ва технология фанларини интеграллаб ўқитишда ёшларни экологик маданиятини шакллантириш методлари	214
S.S.Igamov	Tehnologiya ta'limida fanlararo aloqadorlikning mazmuni	216
З.Ж.Хусанов	Конкретизация связи физики с производством при изучении явления электромагнитной индукции	218
З.Ж.Хусанов	Физикани такроллаш, қайта ўрганишда масалалар ечиш амалаиёти	220
М.Е.Магдиева	Jahonning ilg'or usullarini tadbiq qilish orqali xalq hunarmandchiligini takomillashtirish	223
М.Е.Магдиева D.Juraeva	Professional ta'limda xalq hunarmandchilik va badiiy loyihalash fanini o'qitish	225
G.Hojikarimova	Yoshlarni kasb tanlashga yo'naltirish	227
М.М.Юсупов	Технологик таълим фани ўқитувчиларини таълим	229